| Qosimova Dilorom Sobirovna                                                                                                                 |     |
| O'ZBEKISTONDA SUVGA BO'LGAN TALABNI VAQTLI QATORLAR ORQALI TAHLIL QILISH .....                                                             | 375 |
| Sarvar Mamasoliyev                                                                                                                         |     |
| BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH .....                                                                  | 383 |
| Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li                                                                                                       |     |



# BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH



**Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li**

Namangan davlat texnika universiteti

Buxgalteriya hisobi kafedrası o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Email: [iakbarjon@gmail.com](mailto:iakbarjon@gmail.com)

ORCID: 0009-0004-2630-3840

**Annotatsiya.** Maqolada boshqaruv va nazorat maqsadlarida xarajatlar hisobini tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Kichik biznes subyektlari faoliyatida xarajatlar hisobining ahamiyati, ularni tahlil qilish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqotda buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish, axborot texnologiyalarini joriy etish hamda xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning boshqaruv qarorlariga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, amaldagi qonunchilik hujjatlari, xalqaro tajribalar va nazariy qarashlar asosida samarali boshqaruv hisobi mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Olingan natijalar korxonalarda ichki nazorat tizimini kuchaytirish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** xarajatlar hisobi, boshqaruv hisobi, nazorat tizimi, buxgalteriya axboroti, kichik biznes, moliyaviy nazorat, boshqaruv qarorlari, axborot texnologiyalari, audit, ichki nazorat, optimallashtirish, samaradorlik, hisob siyosati, tahlil, iqtisodiy mexanizm.

**Abstract.** The article analyzes the organization of cost accounting for management and control purposes. It substantiates the importance of cost accounting in the activities of small business entities and the need to improve their analysis and control mechanisms. The study examines the modernization of the accounting system, the introduction of information technologies, and the impact of cost-related information on management decision-making. In addition, recommendations are provided for developing effective management accounting mechanisms based on current legislation, international experience, and theoretical approaches. The results obtained contribute to strengthening internal control systems, optimizing costs, and ensuring financial stability in enterprises.

**Key words:** cost accounting, management accounting, control system, accounting information, small business, financial control, management decisions, information technologies, audit, internal control, optimization, efficiency, accounting policy, analysis, economic mechanism.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы организации учета затрат в целях управления и контроля. Обоснована важность учета затрат в деятельности субъектов малого бизнеса и необходимость совершенствования механизмов их анализа и контроля. В исследовании изучаются направления модернизации бухгалтерской системы, внедрение информационных технологий и влияние данных о затратах на управленческие решения. Кроме того, на основе действующих нормативно-правовых актов, международного опыта и теоретических подходов разработаны рекомендации по созданию эффективных механизмов управленческого учета. Полученные результаты способствуют укреплению системы внутреннего контроля, оптимизации расходов и обеспечению финансовой устойчивости предприятий.

**Ключевые слова:** учет затрат, управленческий учет, система контроля, бухгалтерская информация, малый бизнес, финансовый контроль, управленческие решения, информационные технологии, аудит, внутренний контроль, оптимизация, эффективность, учетная политика, анализ, экономический механизм.



## KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining roli keskin ortib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar tahlillariga ko'ra, kichik va o'rta korxonalar (KO'K) global yalpi ichki mahsulotning 55–60 foizini, bandlikning esa 70 foizdan ortig'ini ta'minlamoqda [1]. Bunday subyektlarning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, ularning moliyaviy hisobi va, ayniqsa, xarajatlar hisobi tizimining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq.

Xarajatlar hisobi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy axborot manbai sifatida xizmat qiladi. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning 2023-yilgi "SME and Entrepreneurship Outlook" hisobotida kichik biznes subyektlarida moliyaviy boshqaruv, xarajatlar monitoringi va byudjetlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida e'tirof etilgan [2]. Ayniqsa, postpandemiya davrida ishlab chiqarish xarajatlarning oshishi, xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi va raqobatning kuchayishi sharoitida xarajatlarni boshqarish tizimini ilmiy asosda yo'lga qo'yish dolzarb masalaga aylandi.

Xalqaro miqyosda Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan kichik biznes uchun moliyaviy hisob va audit tizimlarini soddalashtirishga qaratilgan qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Masalan, Jahon bankining 2024-yilgi "Small Business Financing and Resilience" hisobotida raqamli hisob tizimlari hamda xarajatlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida qayd etilgan [3].

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022-yil 20-dekabrda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliqa tortish tizimini soddalashtirish va buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi [4]. Shuningdek, 2023-yil 3-martdagi Prezident qarori PQ–103-son "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hujjatda korxonalarda moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirish va xarajatlar monitoringini avtomatlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi [5].

Mahalliy iqtisodiy siyosatda ham bu yo'nalish muhim o'rin tutadi. Moliya vazirligi huzuridagi Buxgalteriya hisobi va auditni tartibga solish agentligi tomonidan 2024-yildan boshlab kichik biznes subyektlari uchun milliy buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro talablar (IFRS for SMEs) asosida bosqichma-bosqich joriy etish ishlari olib borilmoqda [6]. Bu nafaqat hisobotlarning sifatini oshiradi, balki korxonalarning xarajatlar tuzilmasini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, xarajatlar hisobi tizimi korxonaning ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlash, tannarxni optimallashtirish va moliyaviy natijalarni tahlil qilishda asosiy rol o'ynaydi. Geibel (2018) ta'kidlaganidek, kichik biznes korxonalarida xarajatlar hisobi mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligi ularning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi [7]. Shu bois, mazkur tadqiqot kichik biznes subyektlarida xarajatlar hisobini boshqaruv va nazorat maqsadida tashkil etish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari kichik biznesda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, hisob va nazorat tizimini raqamlashtirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash yo'nalishlarida amaliy ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xarajatlar hisobi hamda uni boshqaruv va nazorat maqsadlarida tashkil etish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar xalqaro miqyosda keng o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobi tizimida xarajatlarni aniq va o'z vaqtida hisobga olish korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Horngren, Datar va Rajan tomonidan yozilgan "Cost Accounting: A Managerial Emphasis" asarida boshqaruv hisobining konseptual asoslari va xarajatlar toifalari keng tahlil qilingan [8]. Mualliflar xarajatlarni to'g'ri tasniflash va ularni nazorat ostida ushlab turish orqali korxona ichki resurslaridan samarali foydalanish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, boshqaruv hisobi tizimi faqat moliyaviy natijalarni o'lchash vositasi emas, balki strategik rejalashtirishni qo'llab-quvvatlovchi axborot manbai hamdir.

Drury tomonidan tayyorlangan "Management and Cost Accounting" (2022) asarida xarajatlarni boshqarishning zamonaviy modellari, jumladan "activity-based costing" (faoliyatga asoslangan hisob) yondashuvi chuqur tahlil qilingan [9]. Ushbu model, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar uchun xarajatlarning aniq manbalarini aniqlashda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Drury kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan, ammo tahliliy imkoniyatlari keng bo'lgan hisob tizimlarini joriy etish zarurligini asoslab beradi.

A. Xudoyqulov va M. Murodova (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda kichik biznesda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish, xarajatlarni tahlil qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari yoritilgan [10]. Mualliflarning fikricha, mavjud hisob siyosatida xarajatlarni guruhlash va nazorat



qilish tamoyillarini aniq belgilovchi normativ hujjatlarning yetishmasligi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda to'siq bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC) tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan "Professional Accountants in Business" hisobotida raqamli transformatsiya jarayonida xarajatlarni tahlil qilish va boshqarish bo'yicha tavsiyalar berilgan [11]. Hisobotda ta'kidlanishicha, raqamlashtirish orqali xarajatlarning haqidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati yaratilsa, bu boshqaruv qarorlarining aniqligini oshiradi.

Yana bir muhim tadqiqot — Porter va Kramer tomonidan ishlab chiqilgan "Creating Shared Value" konsepsiyasi bo'lib, unda xarajatlarni optimallashtirish nafaqat moliyaviy samaradorlikni, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham ta'minlashi zarurligi qayd etiladi [12]. Mualliflar xarajatlarning hisobi tizimini korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari bilan integratsiyalash orqali yangi qiymat yaratish imkoniyatlarini ochib beradilar.

Yuqoridagi manbalar tahlilidan ko'rinadiki, ilmiy adabiyotlarda xarajatlarning hisobi faqat moliyaviy nazorat vositasi sifatida emas, balki korxonaning strategik boshqaruv tizimining markaziy elementi sifatida talqin qilinadi. Xalqaro tajriba raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xarajatlarning tahlil qilishning aniqligini oshirishga qaratilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotlar bu tizimni milliy normativ-huquqiy muhitga moslashtirish zaruratini ta'kidlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlarida xarajatlarning hisobini boshqaruv va nazorat maqsadlarida tashkil etish masalalari chuqur o'rganildi. Metodologiya iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, komparativ (solishtirma) tahlil, induktiv va deduktiv usullar, shuningdek normativ-huquqiy tahlil tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tizimli yondashuv xarajatlarning hisobi jarayonlarini yagona boshqaruv tizimi tarkibida ko'rib chiqish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali tadqiqotda buxgalteriya, boshqaruv va audit tizimlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Xarajatlarning hisobga olish, tahlil qilish va nazorat qilish bosqichlari o'zaro integratsiyalashgan jarayon sifatida qaraldi.

Xarajatlarning dinamikasi, ularning tuzilmasi, ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir etuvchi omillar hamda resurslardan foydalanish samaradorligi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida o'rganishlar olib borildi [13]. Trend tahlili, ko'rsatkichlar o'sish sur'atlari, nisbiy og'irlik va korrelyatsion bog'liqlik usullari qo'llanildi.

Tadqiqotda O'zbekiston va xalqaro tajriba o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi. Xususan, OECD, IFAC va Jahon bankining kichik biznesda boshqaruv hisobi bo'yicha tavsiyalari milliy buxgalteriya standartlari bilan solishtirildi. Natijada, mavjud tizimning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, ularni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqildi [14].

Induktiv usul orqali kichik biznes subyektlarining amaliy holatlari umumlashtirilib, xarajatlarning hisobi tizimini yaxshilashga oid nazariy xulosalar ishlab chiqildi. Deduktiv usul esa mavjud ilmiy nazariyalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini berdi. Ushbu ikki usulning uyg'unligi tahlilning chuqurligini ta'minladi.

Amaldagi qonunchilik — jumladan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun (2020-yil 25-avgust), Prezident qarorlari hamda Moliya vazirligi me'yoriy hujjatlari — tahlil qilinib, xarajatlarning hisobi bilan bog'liq normativ-huquqiy muhit baholandi [15]. Shuningdek, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS for SMEs) bilan milliy me'yorlar o'rtasidagi farqlar o'rganildi.

Tadqiqotda 1C: Buxgalteriya dasturiy vositalari asosida xarajatlarning hisobini avtomatlashtirish tajribalari o'rganildi. Raqamli transformatsiya sharoitida hisob siyosatini takomillashtirish, xarajatlarning haqidagi ma'lumotlarning real vaqt rejimida yangilanishi va tahlil qilinishi jarayonlari tahlil etildi [16].

Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy ishonchligini, amaliy ahamiyatini va natijalarning qo'llanilish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarida xarajatlarning hisobini tashkil etish va boshqarish tizimi hali to'liq shakllanmaganligini ko'rsatdi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, xarajatlarning hisobi ko'pincha faqat soliqlar va hisobot maqsadlarida yuritilib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida yetarli darajada foydalanilmayotgani aniqlangan.

2021–2024-yillar davomida kichik ishlab chiqarish korxonalarida o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari 26 foizga oshgan. Xarajatlarning eng katta ulushi xomashyo (55–60%), mehnat haqi (20–25%) va energiya sarflari (10–12%)ga to'g'ri keladi [17]. Shunga qaramay, xarajatlarning optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari hali to'liq joriy etilmagan (1-jadval).



## 1-jadval. Kichik ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar tuzilmasi (2021–2024-yillar)

| Yil  | Xomashyo va materiallar (%) | Mehnat haqi (%) | Energiya sarflari (%) | Boshqa xarajatlar (%) | Umumiy o'sish (%) |
|------|-----------------------------|-----------------|-----------------------|-----------------------|-------------------|
| 2021 | 56.3                        | 22.1            | 10.5                  | 11.1                  | –                 |
| 2022 | 57.5                        | 22.8            | 10.8                  | 8.9                   | 7.6               |
| 2023 | 59.0                        | 23.3            | 11.0                  | 6.7                   | 17.3              |
| 2024 | 60.1                        | 24.0            | 11.2                  | 4.7                   | 26.0              |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Xorijiy tajribada, xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida "Activity-Based Costing" (ABC) usuli yordamida xarajatlar manbalarini aniqlash orqali 10–15% tejamlorlikka erishilayotgani qayd etilgan [18]. O'zbekiston korxonalarida esa bu yondashuv amaliyotda deyarli qo'llanilmaydi.

Empirik tahlil natijalariga ko'ra, so'rovnoma o'tkazilgan 50 ta kichik biznes korxonalarining 62 foizi hali ham qo'lda yoki soddalashtirilgan Excel-jadvallar asosida hisob yuritmoqda. Faqat 18 foizi 1C: Buxgalteriya yoki QuickBooks kabi avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanmoqda [19]. Natijada, real vaqt ma'lumotlar bazasi shakllanmagan va xarajatlar to'g'risidagi axborot kechikib yetkazilmoqda (2-jadval).

## 2-jadval. Kichik biznes korxonalarida buxgalteriya tizimlaridan foydalanish darajasi

| Hisob yuritish usuli                 | Korxonalar soni (ta) | Ulushi (%) |
|--------------------------------------|----------------------|------------|
| Qo'lda (daftarda)                    | 14                   | 28         |
| Excel jadvallarida                   | 17                   | 34         |
| 1C: Buxgalteriya                     | 7                    | 14         |
| QuickBooks yoki boshqa dasturlar     | 2                    | 4          |
| Aralash (qisman avtomatlashtirilgan) | 10                   | 20         |
| <b>Jami</b>                          | <b>50</b>            | <b>100</b> |

Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari (2024).

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kichik korxonalarda ichki moliyaviy nazorat tizimlari kam rivojlangan. Har besh korxonadan uchtasida byudjet rejalashtirish tizimi mavjud emas, xarajatlarni prognozlash faqat yillik moliyaviy reja asosida amalga oshiriladi [20].

Bu esa rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlar o'rtasida 8–12 foizlik tafovutlar yuzaga kelishiga olib keladi. Quyidagi 3-jadvalda bu tafovutlar ko'rsatilgan (3-jadval).

## 3-jadval. Kichik biznes korxonalarida rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlar farqi

| Ko'rsatkichlar          | Rejalashtirilgan xarajat (mln so'm) | Haqiqiy xarajat (mln so'm) | Tafvut (%) |
|-------------------------|-------------------------------------|----------------------------|------------|
| Xomashyo va materiallar | 1 200                               | 1 305                      | 8.7        |
| Mehnat haqi             | 520                                 | 565                        | 8.6        |
| Energiya sarflari       | 260                                 | 294                        | 13.1       |
| Boshqa xarajatlar       | 180                                 | 195                        | 8.3        |
| <b>Jami</b>             | <b>2 160</b>                        | <b>2 359</b>               | <b>9.2</b> |

Manba: Kichik ishlab chiqarish korxonalari buxgalteriya hisobotlari asosida muallif tahlili.

IFAC va Jahon banki tavsiyalariga muvofiq, kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan boshqaruv hisobi modellarini joriy etish tavsiya etilgan. Xususan, "SME Financial Toolkit" modeli xarajatlarni to'rt toifaga (ishlab chiqarish, ma'muriy, moliyaviy va savdo xarajatlari) ajratish orqali boshqaruv samaradorligini oshiradi [21].



O'zbekistonda bu modelni mahalliyashtirish orqali korxonalarda xarajatlar hisobotini avtomatlashtirish va tahliliy modullar yaratish imkoniyati mavjud.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarida xarajatlar hisobi faqat hisobot funksiyasini emas, balki boshqaruv vositasini ham bajarishi lozim. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omilidir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarida xarajatlar hisobi tizimini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Amaldagi hisob mexanizmlari soliqqa oid talablarni muvaffaqiyatli bajarish bilan birga, boshqaruv va tahliliy qarorlarni yanada samarali qo'llab-quvvatlash yo'nalishida rivojlantirishni talab etadi.

O'tkazilgan tahlillar kichik korxonalarda xarajatlar hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish darajasini oshirish, ichki nazorat mexanizmlarini modernizatsiya qilish va bu orqali ishlab chiqarish tannarxini maqbullashtirish imkoniyatlari mavjudligini aniqladi. Bunday yondashuv resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy natijalarni barqarorlashtirish hamda raqamli boshqaruv madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba, jumladan OECD va Jahon banki tavsiyalari, kichik biznes uchun soddalashtirilgan boshqaruv hisobi modellarini tatbiq etish yuqori iqtisodiy natijalar berishini ko'rsatmoqda. Shu bois, O'zbekiston amaliyotida "SME Financial Toolkit" va "Activity-Based Costing" kabi ilg'or yondashuvlarni mahalliyashtirish jarayonini jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa hisob jarayonlarini raqamlashtirish, tahliliy axborot sifati va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot asosida quyidagi metodik xulosalar ilgari surildi:

- Xarajatlar hisobi tizimini boshqaruv komponenti bilan boyitish korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

- Kichik biznes uchun yagona boshqaruv hisobi standartlarini ishlab chiqish va joriy etish tizimlilikni ta'minlaydi.

- Raqamli texnologiyalarni tatbiq etish hisob jarayonlarini avtomatlashtirib, inson omilini kamaytiradi hamda axborot ishonchlilikini oshiradi.

- Ichki audit va byudjetlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish xarajatlarni rejalashtirish va tahlil qilishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

- Kichik biznesda boshqaruv hisobi tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash davlat siyosati darajasida muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, kichik biznesda xarajatlar hisobi tizimini yangicha yondashuvlar asosida isloh qilish raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida barqaror rivojlanishning metodik asosini yaratadi.

Amaliy tavsiyalar iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, korxona faoliyatida samaradorlikni oshirish va xalqaro standartlarga mos hisob hamda audit tizimini shakllantirishda muhim metodik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Ularning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi, moliyaviy intizomni mustahkamlash va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Natijada, taklif etilgan yondashuvlar kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshiradi, buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish jarayonini jadallashtiradi hamda moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi. Shuningdek, ular xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga yaqinlashuvni kuchaytiradi, investitsion jozibadorlikni yuksaltiradi va iqtisodiyotning barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. Enhancing Productivity in SMEs. Paris: OECD Publishing, 2019. <https://doi.org/10.1787/825fd4cc7-en>.
2. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023. <https://doi.org/10.1787/342b8564-en>.
3. World Bank. Small Business Financing and Resilience Report 2024. Washington, DC: World Bank Group, 2024. <https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida." PF–60, 20-dekabr, 2022-yil. <https://lex.uz/docs/5841063>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida." PQ–103, 3-mart, 2023-yil. <https://lex.uz/docs/6378519>.
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Buxgalteriya hisobi va auditni tartibga solish agentligi. "Kichik biznes uchun milliy buxgalteriya hisobi standartlarini joriy etish konsepsiyasi." Toshkent, 2024-yil. <https://moliya.uz>.
7. Geibel, Hannah. Developing a Cost Accounting Tool for Small and Medium-Sized Enterprises. Saimaa University of Applied Sciences, 2018. [https://theses.us.fi/bitstream/10024/154105/1/Hannah\\_Geibel.pdf](https://theses.us.fi/bitstream/10024/154105/1/Hannah_Geibel.pdf).
8. Horngren, Charles T., Srikant M. Datar, and Madhav V. Rajan. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 17th ed. Harlow: Pearson Education, 2021.
9. Drury, Colin. Management and Cost Accounting. 11th ed. Hampshire: Cengage Learning, 2022.
10. Xudoyqulov, Aziz va Murodova, Malika. "Kichik biznes subyektlarida xarajatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish yo'nalishlari." Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №5 (2021): 44–52. Toshkent: TDIU nashriyoti.



11. International Federation of Accountants (IFAC). Professional Accountants in Business: The Future of Management Accounting. New York: IFAC, 2023. <https://www.ifac.org>.
12. Porter, Michael E., and Mark R. Kramer. "Creating Shared Value." Harvard Business Review 89, no. 1–2 (2011): 62–77. <https://hbr.org/2011/01/the-big-idea-creating-shared-value>.
13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston iqtisodiyoti ko'rsatkichlari to'plami 2020–2024. Toshkent: DSQ Nashriyoti, 2024. <https://stat.uz>.
14. OECD. "Best Practices in SME Management Accounting S
15. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida." Qonun №ZRU–630, 25-avgust, 2020-yil. <https://lex.uz/docs/4941080>.
16. World Bank. Digital Transformation for SMEs: Enhancing Financial Reporting Systems. Washington, DC: World Bank Group, 2023. <https://www.worldbank.org/en/publication/sme-digital>.
17. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Iqtisodiyotda xarajatlar va rentabellik ko'rsatkichlari 2021–2024. Toshkent: DSQ Nashriyoti, 2024. <https://stat.uz>
18. OECD. SME Performance Indicators in the European Union 2023. Paris: OECD Publishing, 2023. <https://doi.org/10.1787/eu-sme2023-en>
19. Xudoyqulov, Aziz. "Raqamli texnologiyalar asosida kichik biznesda buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari." Iqtisodiyot va moliya jurnali, №3 (2023): 67–75. Toshkent: TDIU nashriyoti.
20. Murodova, Malika. "Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish mexanizmlarining takomillashtirish yo'nalishlari." Audit va buxgalteriya amaliyoti, №4 (2022): 55–63.
21. World Bank. SME Financial Toolkit: Improving Cost Management Systems. Washington, DC: World Bank Group, 2023. <https://www.worldbank.org/en/publication/sme-financial-toolkit>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---